




TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100 TMA
ANNIVERSARY



Journal of Educational and Scientific Medicine



Issue 5 | 2025



OAK.UZ

Google Scholar

Science Information Committee of the Cabinet
of Ministers of the Republic of Uzbekistan

ISSN: 2181-3175



Research Article

Open © Access

GYNICOLOGY AND REPRODUCTOLOGY: DIAGNOSIS, TREATMENT AND INNOVATIVE APPROACHES

OLIMJONOVA MAXLIYOXON SADRIDDIN QIZI
olimjonovamahliyo5@gmail.com

Annotations:

This scientific work highlights modern diagnostic, treatment methods, and approaches in gynecology and reproductive medicine. It analyzes the most effective methods for maintaining women's health and restoring fertility. Additionally, factors affecting reproductive health and ways to eliminate them are discussed.

Keywords:

gynecology, reproductive medicine, diagnostics, treatment, women's health, infertility, pregnancy, hormonal balance, reproductive health.

GINIKOLOGIYA VA REPRODUKTOLOGIYA: DIAGNOSTIKA, DAVOLASH VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Z. M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI BIOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI 1-BOSQICH TALABASI OLIMJONOVA MAXLIYOXON SADRIDDIN QIZI
olimjonovamahliyo5@gmail.com

Ushbu ilmiy ish ginekologiya va reproduktologiya sohasidagi zamonaviy diagnostika, davolash usullari hamda yondashuvlarni yoritadi. Ayollar salomatligini saqlash va tug'ish qobiliyatini tiklash bo'yicha eng samarali usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, reproduktiv salomatlikka ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi.

Kalit sozlar: ginekologiya, reproduktologiya, diagnostika, davolash, ayollar salomatligi, bepushtlik, homiladorlik, gormonal muvozanat, reproduktiv salomatlik

ГИНИКОЛОГИЯ И РЕПРОДУКТОЛОГИЯ: ДИАГНОСТИКА, ЛЕЧЕНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ З. М. БАБУРА ФАКУЛЬТЕТ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК СТУДЕНТКА 1-ГО КУРСА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО НАПРАВЛЕНИЯ "БИОЛОГИЯ" ОЛИМДЖОНОВА МАХЛИЁХОН САДРИДДИН КЫЗЫ olimjonovaamahliyo5@gmail.com

В данной научной работе освещены современные методы диагностики, лечения и подходы в области гинекологии и репродуктологии. Проанализированы наиболее эффективные методы сохранения здоровья женщин и восстановления fertильности. Также будут обсуждаться факторы, влияющие на репродуктивное здоровье, и пути их устранения.

Ключевые слова: гинекология, репродуктология, диагностика, лечение, женское здоровье, бесплодие, беременность, гормональный баланс, репродуктивное здоровье

KIRISH O'zbekiston Respublikasi sog'lqnq saqlash tizimida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ushbu sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2023-yil 8-sentabrda qabul qilingan "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-296-son qarori ushbu yo'nalihsdagisi islohotlarning muhim bosqichi hisoblanadi. Mazkur qaror doirasida tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug'ruq bo'limgari negizida tumanlararo perinatal markazlar tashkil etish, shuningdek, akusherlik va ginekologiya, prenatalogiya, perinatalogiya, neonatalogiya, reproduktologiya sohalarida tibbiyot

oliy ta'lif muassasalari hamda professional ta'lif muassasalari, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish markazlari ta'lif dasturlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish kabi chora-tadbirlar belgilangan.Bundan tashqari, 2022-yil 25-aprelda qabul qilingan PQ-216-sonli "2022 — 2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi qarorda bolalar, homilador va tug'ish yoshidagi ayollarni zarur vitamin komplekslari, yod preparati, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlash joriy etilgan.Shuningdek, 2024-yil 12-mayda qabul qilingan "Aholining reproduktiv salomatligini yaxshilashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-512-sonli Prezident farmoni orqali reproduktiv salomatlik xizmatlarini takomillashtirish, bepushtlikni davolash markazlarini tashkil etish va aholining reproduktiv salomatlik bo'yicha xabardorligini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilishi belgilandi.Ushbu qarorlar va chora-tadbirlar mamlakatimizda ginekologiya va reproduktologiya sohalarini rivojlantirish, shuningdek, onalar va bolalar salomatligini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarning amaliy ifodasıdir. Ginekologiya va reproduktologiya ayollar sog'lig'ini saqlash va ularning tug'ish qobiliyatini tiklashga yo'naltirilgan muhim tibbiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyotda bu sohalar ayollarning reproduktiv salomatligini yaxshilash, homiladorlikni rejalashtirish, bepushtlik muammolarini hal qilish va turli ginekologik kasalliklarni oldini olish bilan chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Reproduktiv salomatlikni ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, bepushtlikka qarshi kurashish va zamonaviy ginekologik muolajalarni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident farmoyishlari va qarorlari asosida perinatal markazlar faoliyatini yaxshilash, skrining dasturlarini kengaytirish va zamonaviy sun'iy urug'lantirish usullarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ginekologiya va reproduktologiya bugungi kunda nafaqat tibbiyot, balki jamiyatning demografik barqarorligi va millat genofondini mustahkamlash nuqtayı nazaridan ham dolzarb sohaga aylangan. Ayollar sog'lig'i bevosita kelajak avlodning salomatligi bilan bog'liq bo'lib, onalik va tug'ruq xavfsizligini ta'minlash, ginekologik kasalliklarning oldini olish, bepushtlikni davolash va sun'iy urug'lantirish texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida bepushtlik muammosi jiddiy global masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har olti juftlikdan biri bepushtlik bilan bog'liq muammolarga duch keladi. O'zbekistonda ham mazkur muammoga qarshi kurashish va aholining reproduktiv salomatligini yaxshilash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan:Onalar va bolalar salomatligini yaxshilash dasturi: Tug'ruq yoshidagi ayollar va homilador ayollar uchun tibbiy ko'riklardan o'tish majburiyati joriy etilgan.Reprodukтив salomatlikni mustahkamlash: 2023-yil 8-sentabrda qabul qilingan PQ-296-sonli qaror asosida perinatal markazlar tashkil etilib, bepushtlik va homiladorlikni rejalashtirish xizmatlari rivojlantirilmoqda.Sun'iy urug'lantirish va bepushtlikka qarshi kurash: 2024-yil 12-maydagi PF-512-sonli Prezident farmoni sun'iy urug'lantirish xizmatlari takomillashtirilmoqda.Onkologik va gormonal kasalliklarning oldini olish: Ginekologik kasalliklar, shu jumladan, bachadon bo'yni saratoni va gormonal disbalans bilan bog'liq muammolar bo'yicha skrining dasturlari yo'lga qo'yilgan. Ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadi ginekologiya va reproduktologiya sohasida zamonaviy diagnostika va davolash usullarini o'rganish hamda ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:1. Zamonaviy diagnostika va skrining samaradorligini tahlil qilish.2. Ginekologik kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash usullarini o'rganish.3. Bepushtlikni davolashning yangi texnologiyalarini tahlil qilish.4. Homiladorlikni rejalashtirish va prenatal skrining dasturlarining ahamiyatini ochib berish.5. O'zbekistonda reproduktiv salomatlik bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlarini o'rganish va ularning natijalarini tahlil qilish. Bepushtlikning ortishi – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har 6 juftlikdan biri bepushtlik muammosiga duch kelmoqda. O'zbekistonda ham bu ko'rsatkich ahamiyatlari bo'lib, bepushtlikning erkaklar va ayollar orasida ko'payishi tibbiyot va jamiyat uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.Ginekologik kasalliklarning keng tarqalishi – Bachadon bo'yni saratoni, endometrioz, polistik tuxumdon sindromi (PTOS) kabi kasalliklarning ortishi ayollar reproduktiv salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.Homiladorlik va tug'ruq asoratlari – O'zbekistonda onalik o'limi darajasini kamaytirish bo'yicha choralar ko'rileyotgan bo'lsa-da, homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq xavflar mavjudligicha qolmoqda. Reproduktiv salomatlik bo'yicha xabardorlikning pastligi – Aholining reproduktiv sog'liq masalalari bo'yicha yetarli ma'lumotga ega emasligi turli kasalliklarning oldini olish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli ishlarni olib borish muhimdir:1. Bepushtlikni davolash va sun'iy urug'lantirish markazlarini rivojlantirish.Sun'iy urug'lantirish usullarini yanada rivojlantirish va arzonlashtirish.Bepusht juftliklarni erta aniqlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish. 2. Ginekologik kasalliklarni erta aniqlash va oldini olish. 2023-yil 8-sentabrda qabul qilingan PQ-296-sonli qaror asosida ayollar uchun majburiy skrining dasturlarini kengaytirish. Onkologik kasalliklarning oldini olish uchun bachadon bo'yni saratoni skrining dasturlarini kuchaytirish. 3. Homiladorlik va tug'ruq xavfsizligini oshirish.Prenatal skrining dasturlarini takomillashtirish.Homilador ayollarning bepul tibbiy tekshiruvlardan o'tishini ta'minlash.Kamqonlik va anemiya kabi kasalliklarning oldini olish uchun vitamin va temir preparatlarini bepul tarqatish. 4. Reproduktiv salomatlik bo'yicha ta'lif va xabardorlikni oshirish. Maktab va oliy ta'lif muassasalarida reproduktiv salomatlik bo'yicha majburiy darslar joriy etish. Televideniye va internet orqali keng qamrovli axborot kampaniyalarini tashkil qilish.

XULOSA Ginekologiya va reproduktologiya sohalari ayollar salomatligini saqlash, ularning tug‘ish qobiliyatini tiklash va jamiyatning demografik barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqot doirasida reproduktiv salomatlik bilan bog‘liq muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va zamonaviy tibbiy yondashuvlar tahlil qilindi.O‘zbekistonda bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar sezilarli natijalar bermoqda. Prezident qarorlari va farmoyishlari asosida perinatal markazlar faoliyati yaxshilanib, tug‘ruq jarayonining xavfsizligini oshirish, bepushtlikni davolash imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan:2023-yil 8-sentabrda qabul qilingan PQ-296-sonli qaror orqali tug‘ruq bo‘limlarining infratuzilmasi yaxshilanmoqda, ayollar va bolalar salomatligini muhofaza qilish uchun yangi markazlar tashkil etilmoqda.2024-yil 12-maydagi PF-512-sonli Prezident farmoni sun’iy urug‘lantirish markazlarining sonini oshirish, bepushtlikni davolash xizmatlarini rivojlantirish va reproduktiv salomatlik bo‘yicha ma’lumot berish tizimini kuchaytirishga qaratilgan.2022-yil 25-aprelda qabul qilingan PQ-216-sonli qaror orqali homilador ayollar va yosh bolalarni zarur vitaminlar, temir va foliy kislotasi bilan ta’minlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan.Ilmiy va amaliy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarga olib keladi:1. Ginekologik kasalliklarni erta aniqlash va skrining dasturlarining ahamiyati oshdiReproduktiv salomatlikni tekshirish uchun muntazam skrining dasturlari yo‘lga qo‘yilmoqda.Ayollar orasida bachadon bo‘yni saratoni va boshqa onkologik kasalliklarni erta aniqlash samaradorligi oshmoqda.2. Homiladorlik va tug‘ruq xavfsizligi yaxshilanmoqdaPrenatal tibbiy xizmatlar sifatining oshishi tufayli onalar va chaqaloqlar o‘lim darajasi pasaymoqda.Homilador ayollar orasida kamqonlik va gormonal buzilishlarni davolashga e’tibor kuchaytirildi.3. Bepushtlikni davolash va sun’iy urug‘lantirish xizmatlari rivojlanmoqda In vitro urug‘lantirish (IVF) texnologiyalarining takomillashtirilishi natijasida bepushtlik bilan kurashish imkoniyatlari kengaydi.Ertal bosqichda diagnostika va profilaktika choralar natijasida juftliklar orasida reproduktiv muammolarni oldini olish imkoniyati oshdi.4. Reproduktiv salomatlik bo‘yicha xabardorlik oshdiMaktab va oliy ta’lim muassasalarida reproduktiv salomatlik bo‘yicha darslar va seminarlar tashkil qilinmoqda.Ommaviy axborot vositalari orqali sog‘lom turmush tarzi va rejalashtirilgan homiladorlik haqida ma’lumot berilmoqda.

TAKLIFLAR Kelajakda ginekologiya va reproduktologiya sohasida quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish muhim: Davlat dasturlarini kengaytirish – Reproduktiv salomatlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarini yanada takomillashtirish, ularni aholining barcha qatlamlari uchun qulay va arzon qilish.Skrining va diagnostika xizmatlarini kengaytirish – Ayollar orasida erta bosqichda kasalliklarni aniqlash tizimini kuchaytirish, onkologik kasalliklarni oldini olish bo‘yicha milliy dasturlarni rivojlantirish. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – Sun’iy urug‘lantirish, genetik tadqiqotlar va gormon terapiyasi kabi ilg‘or usullarni joriy etish orqali bepushtlikka qarshi kurashish.Xabardorlik va ta’lim dasturlarini kuchaytirish – Reproduktiv salomatlik haqida jamiyatda tushunchalarni oshirish, yoshlarni bu borada erta xabardor qilish uchun ta’lim tizimiga qo‘sishimcha fanlar va dasturlar kiritish. **Ginekologiya va reproduktologiya** sohasidagi rivojlanish inson salomatligi va jamiyatning kelajagi uchun muhim omildir. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat dasturlari ayollar salomatligini mustahkamlash, bepushtlik muammosini hal qilish va sog‘lom avlodni dunyoga keltirishga qaratilgan. Kelajakda bu sohaga oid innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, ta’lim va profilaktik xizmatlarni kengaytirish orqali yanada ijobji natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-296-sonli qarori: "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholi reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" (08.09.2023).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-512-sonli farmoni: "Sun’iy urug‘lantirish xizmatlarini rivojlantirish va reproduktiv salomatlikni mustahkamlash to‘g‘risida" (12.05.2024).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-216-sonli qarori: "Homilador ayollar va yosh bolalarni zarur vitaminlar bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" (25.04.2022).

N.K. Raxmatova, M.Usmonova. "Ginekologik kasalliklar va ularning zamonaviy davolash usullari". Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.

A.A. Islomov. "Reproduktiv salomatlik va onalik muhofazasi: ilmiy asoslar va amaliy yondashuvlar". Toshkent, 2022.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlari – Reproduktiv salomatlik va bepushtlik statistikasi bo‘yicha hisobotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik portalı: <https://lex.uz>

JSSTning reproduktiv salomatlik bo‘yicha rasmiy sayti: <https://www.who.int>

O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti: <https://ssv.uz>

Daryo.uz – Tibbiyot bo‘limi: <https://daryo.uz>

CyberLeninka ilmiy maqolalar kutubxonasi: <https://cyberleninka.ru>